

KASB-HUNARGA YO`NALTIRISH

Yusupova Moxiniso Mengirovna

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani MMTBga qarashli 28-maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning dolzarb jihatlari, ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu yo'nalishning tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Kasb tanlash jarayonida oilaning, maktabning, pedagoglarning hamda ijtimoiy omillarning roli tahlil qilingan. Maqolada kasbiy yo'naltirishning bosqichlari, metod va usullari, ayniqsa umumta'lim muassasalarida samarali kasbiy maslahat berish amaliyoti yoritilib, o'quvchilarni mehnatga, tadbirkorlikka, ishlab chiqarishga va zamonaviy kasblarga yo'naltirishda yangi yondashuvlar asosida tavsiyalar berilgan. Shuningdek, kasbiy o'zini anglash, qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash mexanizmlari, kasb tanlashdagi psixologik omillar va innovatsion texnologiyalarning o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kasb-hunarga yo'naltirish, kasb tanlash, o'quvchi qiziqishi, mehnat tarbiyasi, psixologik yondashuv, ijtimoiy omillar, kasbiy maslahat, ta'lim tizimi, innovatsion texnologiyalar.

Shaxsning ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir bola iste'dodli va ma'lum bir sohada o'z iste'dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo'naltirishning turli xil usullari mavjud — kelajakdagi kasbni tanlashda duch keladigan o'spirin bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, shuningdek, standartlashtirilgan usullar mavjud, ularning natijalari kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi. Ulardan biri testni to'ldirishni o'z ichiga olgan «Harrissonn assessment» usuli bo'lib, uning natijalari talabaning rivojlangan fazilatlarini, shuningdek o'sish zonalarini ochib beradi. Ushbu amaliyot shuningdek, farzandingizga ushbu texnikaning natijalarini tushunishda yordam beradigan va rivojlanish rejasini tuzishda yordam beragigan psixolog konsultant

bilan suhbatni o'z ichiga oladi Kasbga yo'naltirish usuli nima uchun kerak? Albatta, ba'zi ota-onalar farzandlariga qaysi universitetga o'qishga kirishni, qaysi mutaxassislikda ta'lim olishni o'zi hal qilishadi, lekin ota-onaning bunday qarori har doim ham amalga oshmasligi mumkin, chunki kelajak kasbi bo'yicha hali aniq bir qarorga kelmagan bola bu mutaxassislikka umuman qiziqmasligini tushunib, o'qishni davom ettirishni istamasligi mumkin.

Kasbga yo'naltirish usulidan foydalanish esa bunday vaziyat duchor bo'lmaslikga hamda oilaviy byudjetni tejashga va o'qitishga sarflanadigan vaqtni tejashga yordam beradi. Bolaning shaxsiy fazilatlarini va qobiliyatlariga asoslangan «Harrison assessment» kasbga yo'naltirish usuli sizning farzandingiz uchun eng maqbul kasblar ro'yxatini taklif etadi. O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni tashkiliy jihatdan ko'proq pedagogik ;harakterga ega bo'lsada, u mazmunan psixologik mohiyatga ega. Bu yo'nalish pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, bu jarayon oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanib, umumta'lim maktablarida davom etadi. O'z vaqtida kasbga yo'naltirish o'quvchining hayotdagi o'rnini yaxshiroq egallashida muhimdir. Psixologik diagnostika va pedagogik tashxis ishlari ham ushbu soha bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida endilikda bizga faqatgina har tomonlama rivojlangan bola bo'libgina qolmasdan, balki har tomonlama sog'lom, aqlan rivojlangan bolani tarbiyalashda va unga bilim berish va kamolga yetkazishda har bir insonning asosiy burchi ekanligi uqtiriladi. O'qituvchining mahorati o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini topishlarida, kerakli mutaxassis, jamiyatning intellektual salohiyatli kadrlari bo'lib yetishishlarida, ularning kasbiy madaniyatini shakllantirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy va kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyaga ega bo'lishlari, shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishlari, o'z ustilarida doimiy ishlashlari, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnikani, pedagogik mahorat hamda insonparvarlikni takomillashtirishlari talab etiladi.

Kasb-hunar tanlashda maqsadning to'g'ri qo'yilishi yarim g'alabadir. Bu g'alabani yuzaga chiqarishdagi qo'llanilgan vositalar, metodlar samaraliligi, sinovdan o'tgan bo'lishi ayni muddaodir. Kasbga oid ma'lumotlarni tahlil qilish, natijalarni solishtirish, birlashtirish, o'quvchining kasbiy axborot bazasini boyitishda qo'llanilgan filmlar, innovatsion yangiliklar vaziyatni baholay olishga yordam beradi. Shuningdek, tasavvur, qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat, bilim, ko'nikma, odatlar bilan uzviy bog'laydi. Hozirgi kunda kasb-hunarga bag'ishlangan targ'ibot-tashviqot ishlari, kasbiy bilim va ta'limga yo'naltirilib, o'quvchilarning fikrlarini, ota-onalarning hamkorligini seminar treninglar, ma'ruzalar va suhbatlar uyushtirish, kasb-hunarning ijtimoiy ahamiyatini yoritish, anjuman, radio va teleko'rsatuvlarda chiqishlar, qiziqish va havaslarini orttirish individual muloqotlarni uyushtirishdan, mazmunli tashkil etishdan iboratdir. Bunda psixologik xizmatni keng tadbqiq qilish, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish kasbiy o'zlikni anglash, kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining tarkibiga singib ketgan komponent sifatida maqsadga yo'naltitiruvchi, kuchaytiruvchi, korreksiya qiluvchi, ya'ni oqimi hususiyatlarini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

O'quvchilarni ongli kasb-hunar tanlashiga ta'sir etuvchi omillar-uning individual –tipologik hususiyatlari yoki ichki imkoniyatlari va ehtiyojlari hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasbiy o'zlikni anglashning nomoyonligi ichki pozitsiyaning shakllanish qonunyatiga asoslanadi. Ichki pozitsiya o'z-o'zidan emas, balki sub'ektning tashqi muhit bilan uzluksiz aloqada bo'lishi va tashqi muhitning unga ta'sir etishi jarayonida shakllanadi. "Men kimman? Men qandayman?" mashqi. Maqsad: o'z-o'zini namoyish qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Bolalar sizdan "Men kimman?" degan savolga qog'oz varag'ida javob yozishingizni so'rayman.". Savolga aniq javob berish kerakligiga e'tibor bering. "Men qandayman?" - bu boshqa masala.

Misol uchun:

1. Men-Hasan
2. Men kitoblarni yaxshi ko'raman
3. Men quyoshman

4. Men sportchi va boshqalar.

Har bir inson tayyor bo'lgach, o'zingizni tanishtirishni taklif qilaman. Ishtirokchilar o'z navbatida turishadi va ular kimligini aytishadi. Agar javob aniq bo'lmasa, qolganlar spikerga aniqlik kiritishini iltimos qilishlari mumkin. Har bir o'smir uchun treningda ishtirok etuvchilar soniga qarab 1-2 daqiqa beriladi.

Munozara:

- Nima uchun bu fikrni tanladingiz? Qolganlarni tinglaganingizdan so'ng, boshqasini tanlashni xohlaysizmi?

* Ishtirokchilarning qaysi biri ko'proq eslab qoldi? Nima uchun? Tavsiyalar: o'yin sizni qiziqarli tomondan ifodalashga imkon beradi, bu ayniqsa yoshlar uchun muhimdir.

Bu jarayonda odamlar bir-birlarini yaxshi bilib olishadi, bu esa mashg'ulot doirasida keyingi ishlarga yordam beradi. "O'zlikdan chekinish" mashqi Maqsad: ishtirokchilarda ruhiy engillik hosil qilish, ularni stressdan xalos qilish Jarayon: ishtirokchilardan trening muhiti (yoki xona) bo'ylab erkin xotik tarzda (ixtiyoriy tarafga qarab) shunchaki harakatlana boshlash so'raladi. Ularga tasavvurni ishga solish va o'zlarini og'ir temir robot deb bilib harakatlana boshlash so'raladi. Ishtirokchilar 10-15 sekund shunday harakatangach keyingi ustanovka beriladi, ya'ni endi ular o'zlarini eriyotgan temir deb tasavvur qilishlari va harakatda davom etishlari kerak. Yana 10-15 sekund o'tgach ular o'zlarini loy deb tasavvur qilib haotik harakatni davom ettirishlari lozim. Endi baland daraxtdan tushayotgan va shamol uchirib ketayotgan barg hazonga aylaning. So'ngra ishtirokchilarga aytiladi: endi faraz qiling sizlar juda bahaybat daraxtlarga aylandingiz, sizlar bitta o'rmon sizlar. Sizni qattiq shamol silkitib uyog'dan-buyoqqa tebratmoqda, endi chaqmoq bo'ldi, yomg'ir yog'a boshladi. Yashin urib o'rmonga yong'in tushdi va daraxtlar yona boshladi sizlar yonayotgan daraxsizlar. YONG'in tugadi daraxtlar kulga aylanishdi, o'zingizni kul deb faraz qiling. Yana tasavvurni ishga soling sizning barcha tashvishu-g'amlaringiz, muammolaringiz endi mana shu kuldin iborat barchasi kuyib kul bo'ldi va siz shunchalar engilsizki sal qattiq shamol bo'lsa uchib ketishingiz mumkin. Bundan so'ng ishtirokchilardan o'z joylariga

o'tirib olishlari so'raladi va ularning taasurotlari xaqida savollar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova N. *Kasbga yo'naltirish asoslari*. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Ortiqova M., Karimov B. *Kasb tanlash psixologiyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Rasulov I. *Mehnat tarbiyasi va kasbiy yo'naltirish*. – Samarqand: Zarafshon, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar bandligini ta'minlash va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori, 2022-yil.
5. Yusupov M. *Zamonaviy kasblar va mehnat bozorining talablari*. – Andijon: Barkamol avlod, 2020.